O'ZBEKISTON EKSPORTIDA YUQORI QO'SHILGAN NARXLI MAHSULOTLAR ULUSHINI ORTIRISH YO'LLARI

Sanamoy Topilova Muzaffar kizi
E-mail: topilovasanamoy123@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekiston eksportining 2025 yildagi o'sishi tarkibiy jihatdan ajratib ko'riladi. Hisob-kitobga ko'ra, 6,5 mlrd dollarlik o'sishning 70,4 foizi nomonetar oltin va xizmatlar eksportiga to'g'ri kelgan, sanoat buyumlari hamda mashina-uskunalar eksporti esa qisqargan. Ushbu holat va uning sabablari (real almashuv kursi bosimi xavfi, moliyalashtirishdagi cheklovlar, eksportchilar bazasining torligi, savdo rejimidagi to'siqlar) tahlil qilinib, eksportning hajmiy o'sishini qo'shilgan qiymatga asoslangan o'sishga aylantiradigan beshta taklif ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: eksport tarkibi, qo'shilgan qiymat, nomonetar oltin, mashinasozlik importi, real almashuv kursi, JST.

Muammoning qo'yilishi

2025 yilda O'zbekiston tovar va xizmatlar eksporti 33,8 mlrd dollarga yetib, avvalgi yilga nisbatan 24,0 foiz o'sdi (National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan [NSCU], 2026, p. 1). Ammo eksport hajmining o'sishi uning sifati ham yaxshilanganini anglatmaydi. Shu sababli tezisning markaziy savoli "eksport qancha o'sdi?" emas, balki eksportning hajmiy o'sishini yuqori qo'shilgan qiymatga tayangan, barqaror o'sishga qanday aylantirish mumkinligidir.

Savolni bir necha dalil dolzarb qiladi. Birinchidan, nomonetar oltin 9,9 mlrd dollar bilan umumiy eksportning 29,3 foizini, tovar eksportining esa 41,2 foizini tashkil etdi (NSCU, 2026, p. 3).[1] Ikkinchidan, Xalqaro valyuta jamg'armasi (International Monetary Fund [IMF]) xodimlari yoqilg'i va tog'-kon mahsulotlaridan tashqari eksportning aholi jon boshiga hajmi nisbatan past ekanini qayd etadi (IMF, 2026, p. 6). Uchinchidan, 2018–2025 yillarda importning o'rtacha o'sish sur'ati 17,4 foizni, oltinsiz eksportniki esa 14 foizni tashkil etgan (IMF, 2026, p. 40): oltinsiz eksport importdan sekinroq o'sgan.

Tezisda quyidagi ish gipotezasi tekshiriladi: so'nggi yillardagi eksport o'sishining asosiy qismi jahon narxlariga bog'liq oltin va xizmatlar hisobiga ta'minlangan, sanoat eksportining chuqurlashuvi esa to'xtab qolgan; buning sabablari makroiqtisodiy, moliyaviy va savdo-institutsional xarakterga ega. Demak, eksport siyosati umumiy hajm maqsadlaridan ko'ra aynan shu kanallarga qaratilishi kerak.

Metodologik asos va ma'lumotlar

"Yuqori qo'shilgan qiymatli eksport" tushunchasi bitta ko'rsatkichga sig'maydi. Yalpi eksportda chet ellik ishlab chiqaruvchilarning qo'shilgan qiymati ham, qayta hisoblash ham mavjud; shu sababli rasmiy savdo statistikasi bilan milliy hisoblar orasidagi tafovutni yopish uchun eksportni qo'shilgan qiymat komponentlariga ajratish usuli taklif etilgan (Koopman et al., 2014). Ikkinchi yondashuv mahsulotning o'ziga qaraydi: mamlakat eksportining "daromad darajasi" indeksi keyingi iqtisodiy o'sishni bashorat qiladi, ya'ni nimani eksport qilish muhim (Hausmann et al., 2007).

[1] Tovar eksporti = jami eksport − xizmatlar eksporti = 33 812,3 − 9 760,4 = 24 051,9 mln dollar; oltinning tovar eksportidagi ulushi 9 900,1 / 24 051,9 = 41,2 %. Hisob-kitob muallifniki.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

O‘zbekiston uchun birinchi yondashuvni to‘liq qo‘llash imkoni cheklangan: WITS’dagi mamlakat sahifasida O‘zbekistonning global qiymat zanjirlari bo‘yicha oxirgi mavjud ko‘rsatkichlari 2015 yilga oid (bu zanjirlar bilan bog‘liq savdo ulushi 22 foiz) (World Bank, n.d.-b). Ikkinchi yondashuvda esa “high-tech eksport” ulushini asosiy o‘lchov qilib olish o‘zini oqlamaydi: eksportda oltin, agrar-oziq-ovqat va to‘qimachilik salmoqli bo‘lgan iqtisodiyotda qo‘shilgan qiymat asosan an’anaviy tarmoqlar ichida, ya’ni qayta ishlash chuqurligi va mahsulot birligining qiymati orqali oshadi. Shu sababli to‘rtta bilvosita ko‘rsatkich birga ishlatildi: (1) eksport o‘sishiga toifalar bo‘yicha qo‘shilgan hissa; (2) mashina-uskunalar bo‘yicha eksportning importni qoplash darajasi; (3) qayta ishlash bosqichlari bo‘yicha tarkib va oltinsiz eksport dinamikasi; (4) mahsulot birligining qiymati (dollar/tonna). Ularning hech biri ichki qo‘shilgan qiymatni bevosita o‘lchamaydi, lekin birgalikda eksport tarkibining chuqurlashayotgani-chuqurlashmayotganini baholashga imkon beradi.

Davr tanlovi. Dinamik tahlil uchun 15 yillik taqqoslanadigan qator mavjud emas. Jahon banki WDI bazasida O‘zbekistonning ishlab chiqarish (manufactures) eksporti ulushi qatori faqat 2017–2024 yillarni qamrab oladi (World Bank, n.d.-a); XVJ ham real almashuv kursi bo‘yicha tarixiy qatorlarga tayangan model baholarini 2017 yildagi keskin strukturaviy uzilish kam ma’lumotli qilib qo‘yganini qayd etadi (IMF, 2026, p. 41). Shuning uchun uzoq muddatli taqqoslash 2018–2023 yillar (WITS’da mahsulot guruhlari bo‘yicha oxirgi yil — 2023) va XVJning 2018–2025 yillar bo‘yicha hisob-kitobi bilan cheklandi; joriy holat esa Milliy statistika qo‘mitasining 2025 yil bo‘yicha eng so‘nggi rasmiy ma’lumotlariga tayanadi.

Eksport o‘sishining tarkibi: hajm sifatga aylanmagan

2025 yilda eksport 2024 yilga nisbatan 6 542,2 mln dollarga oshdi. 1-rasmda ko‘rinib turibdiki, shu o‘sishning 2 419,5 mln dollari (37,0 %) nomonetar oltinga, 2 188,7 mln dollari (33,5 %) xizmatlarga to‘g‘ri keladi; ikkalasi birga o‘sishning 70,4 foizini beradi.[2] Oltinsiz tovar eksporti 12 217,8 mln dollardan 14 151,8 mln dollargacha, ya’ni 15,8 foizga o‘sdi — bu jami eksportning 24,0 foizlik o‘sishidan ancha past (NSCU, 2026, p. 3).

Sanoat tovarlari kesimi yanada e’tiborli: sanoat buyumlari (SITC 6) eksporti 4 175,8 mln dollardan 3 988,4 mln dollargacha (−4,5 %), mashina va transport uskunalari eksporti 1 201,1 mln dollardan 1 161,5 mln dollargacha (−3,3 %) kamaydi (NSCU, 2026, pp. 3–5). To‘qimachilik eksporti 2 632,5 mln dollar bo‘lib, bir yilda 8,2 foizga qisqargan; uning 54,3 foizini tayyor mahsulotlar, 27,0 foizini ip tashkil etadi (NSCU, 2026, p. 7). Kimyo mahsulotlari (+27,1 %) va turli tayyor buyumlar (+53,4 %) o‘sgan, biroq ularning mutlaq hissasi oltin va xizmatlar yonida kichik qoldi. Xizmatlar o‘sishi ichki qo‘shilgan qiymat nuqtayi nazaridan salbiy emas, lekin texnologik chuqurlashuvdan ham dalolat bermaydi: xizmatlar eksportida turizm (50,0 %) va transport (33,0 %) ustun, bilimtalab telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari esa 9,4 foiz (921,5 mln dollar) (NSCU, 2026, p. 7).

[2] O‘sishdagi ulushlar: 2 419,5 / 6 542,2 = 37,0 %; 2 188,7 / 6 542,2 = 33,5 %. Oltinsiz tovar eksporti: 2024 yilda (27 270,1 − 7 571,7) − 7 480,6 = 12 217,8 mln dollar; 2025 yilda 24 051,9 − 9 900,1 = 14 151,8 mln dollar; o‘sish 15,8 %. Hisob-kitob muallifniki.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.



1-rasm. 2025 yilda eksport o'sishining toifalar bo'yicha tarkibi (2024 yilga nisbatan, mln AQSh dollari)

* Boshqa toifalar: ichimliklar va tamaki, o'simlik va hayvon moylari hamda tasniflanmagan tovarlar.

Manba: National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2026, p. 3–5) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. https://stat.uz/img/news/press-reliz-en-_p94457.pdf

XVJning to'lov balansi jadvalida ham shu manzara ko'rinadi: "boshqa tovarlar" (paxta tolasi, energiya, oltin va oziq-ovqatdan tashqari) eksporti YaIMga nisbatan 2022 yildagi 10,1 foizdan 2025 yilda 6,2 foizgacha pasaygan, oltin eksporti esa 4,4 foizdan 6,7 foizgacha ko'tarilgan (IMF, 2026, p. 34). YaIMning dollar hisobida tez o'sgani bu nisbatga ta'sir qilgan, lekin baribir sanoat eksporti iqtisodiyot o'sishidan orqada qolayotganini ko'rsatadi.

Bunday tarkibning oqibati ikki tomonlama. Birinchidan, oltin narxi jahon bozorida shakllanadi va XVJ jahon sharoitining yomonlashuvi natijasida oltin narxining tushishini asosiy tashqi xavflardan biri sifatida ko'rsatadi (IMF, 2026, p. 8). Ikkinchidan, Hausmann et al. (2007) mantig'iga ko'ra, eksport savati kelgusi o'sish sur'atiga ta'sir qiladi; savatning jahon narxiga bog'liq bitta tovar atrofida to'planishi o'sish manbasini tashqi shokka ochiq qoldiradi.

Sanoat eksporti tor va importga bog'liq

1-jadvalda 2025 yil bo'yicha eksport va import tarkibi solishtirilgan. Eng katta tafovut mashina va transport uskunalarida: ular importning 33,8 foizini (15 995,9 mln dollar), eksportning esa atigi 3,4 foizini (1 161,5 mln dollar) tashkil etadi; eksport importning 7,3 foizini qoplaydi.[3] Kimyo mahsulotlarida bu ko'rsatkich 38,1 foiz, sanoat buyumlarida 54,9 foiz.

[3]Qoplash darajasi = eksport / import: mashina va transport uskunalari 1 161,5 / 15 995,9 = 7,3 %; kimyo mahsulotlari 2 135,7 / 5 600,4 = 38,1 %; sanoat buyumlari 3 988,4 / 7 258,4 = 54,9 %. Hisob-kitob muallifniki.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1-jadval.

2025 yilda eksport va import tarkibi (SITC bo'limlari bo'yicha, mln AQSh dollari)

Toifa	Eksport	Eksportdagi ulushi, %	Import	Importdagi ulushi, %	Eksportning importni qoplashi, %
Nomonetar oltin	9 900,1	29,3	494,7	1,0	—
Mineral yoqilg'i (SITC 3)	1 476,2	4,4	3 998,6	8,4	36,9
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar (SITC 0)	2 944,7	8,7	4 563,0	9,6	64,5
Kimyo mahsulotlari (SITC 5)	2 135,7	6,3	5 600,4	11,8	38,1
Sanoat buyumlari (SITC 6)	3 988,4	11,8	7 258,4	15,3	54,9
Mashina va transport uskunalari (SITC 7)	1 161,5	3,4	15 995,9	33,8	7,3
Turli tayyor buyumlar (SITC 8)	1 696,0	5,0	1 749,1	3,7	97,0
Xizmatlar	9 760,4	28,9	5 270,6	11,1	185,2
Boshqa toifalar	749,3	2,2	2 423,8	5,1	—
Jami	33 812,3	100,0	47 354,5	100,0	71,4

Izoh: yaxlitlash sababli ulushlar yig'indisi 100 % dan farq qilishi mumkin. Import qatorida nomonetar oltin — SITC 9 bo'limining 97-guruhi; "Boshqa toifalar" — ichimliklar va tamaki, xom ashyo, o'simlik va hayvon moylari hamda tasniflanmagan tovarlar.

Manba: National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2026, pp. 3–5, 8–10) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab tuzilgan. https://stat.uz/img/news/press-reliz-en-_p94457.pdf

Bu tafovutni bevosita ichki qo'shilgan qiymatning pastligi deb o'qib bo'lmaydi: import qilingan uskunalarning katta qismi ichki quvvatlarni yaratishga ketadi. Ammo u mashinasozlik va komponent ishlab chiqarish bazasi hali eksportda ko'rinmayotganini, ya'ni sanoatlashuv hozircha importga tayangan investitsiya bosqichida ekanini ko'rsatadi.

Dinamikani 2-jadval ko'rsatadi (2018 va 2023 yillar). Tovar eksporti 10 919 mln dollardan 21 017 mln dollarga (+92,5 %) o'sgan; shundan nomonetar oltin +180,2 %, oltinsiz eksport esa +60,6 % oshgan. Oltinning ulushi 26,6 foizdan 38,8 foizgacha ko'tarilgan.[4] Kapital tovarlar eksporti 128 mln dollardan

[4]Oltin sifatida faqat HS 710813 pozitsiyasi ("Gold in other semi-manufactured forms, non-monetary") olindi, shuning uchun 2018 yil ko'rsatkichi oltin eksportining pastki bahosi bo'lishi mumkin. WITS ma'lumotlari UN Comtrade'da qayd etilgan (gap-filled

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1 330 mln dollargacha (10,4 baravar) o'sgan — bu mashinasozlik yo'nalishidagi ijobiy siljish. Lekin o'sish juda past bazadan boshlangan va, yuqorida ko'rilganidek, 2024–2025 yillarda mashina va transport uskunalari eksporti 1,2 mlrd dollar atrofida to'xtab qoldi. Iste'mol tovarlari eksporti esa 2018–2023 yillarda atigi 13,6 foizga oshgan.

2-jadval.

Tovar eksportining qayta ishlash bosqichlari bo'yicha tarkibi, 2018 va 2023 yillar (mln AQSh dollari; qavsda jami eksportdagi ulushi, %)

Ko'rsatkich	2018	2023	O'zgarish
Tovar eksporti, jami	10 919	21 017	+92,5 %
shu jumladan nomonetar oltin (HS 710813)	2 909,5 (26,6)	8 153,8 (38,8)	+180,2 %
Oltinsiz tovar eksporti	8 009,5 (73,4)	12 863,2 (61,2)	+60,6 %
Xomashyo	1 142 (10,5)	1 194 (5,7)	+4,6 %
Oraliq tovarlar	6 273 (57,5)	14 455 (68,8)	+130,4 %
Iste'mol tovarlari	3 138 (28,7)	3 565 (17,0)	+13,6 %
Kapital tovarlar	128 (1,2)	1 330 (6,3)	10,4 baravar

Izoh: xomashyo, oraliq, iste'mol va kapital tovarlar yig'indisi jami eksportdan kam, chunki tasniflanmagan tovarlar alohida ko'rsatilmagan; nomonetar oltin shu guruhlarning birida hisobga olingan (WITS sahifasida qaysi guruhga kiritilgani ko'rsatilmagan), shuning uchun guruh qatorlariga qo'shilmaydi. Oltinsiz eksport = jami − oltin.

Manba: World Bank (n.d.-c; n.d.-d), WITS (UN Comtrade) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab tuzilgan. https://wits.worldbank.org/CountryProfile/en/Country/UZB/Year/2018/Summary ; https://wits.worldbank.org/CountryProfile/en/Country/UZB/Year/LTST/Summarytext

Mahsulot birligining qiymati qayta ishlash va sifat farqini yaqqol ko'rsatadi. 2025 yilda meva-sabzavot eksporti 2 121,2 mln dollarga (+36,9 %) yetdi, jismoniy hajm esa 2 162,7 ming tonnaga (+6,2 %) o'sdi; ya'ni tonna uchun o'rtacha qiymat 761 dollardan 981 dollarga (+28,9 %) ko'tarildi (NSCU, 2026, p. 6).[5] Mahsulotlar orasidagi farq esa katta: piyoz tonnasi taxminan 282 dollar, sabzi 195 dollar, quritilgan uzum 1 271 dollar, quritilgan olxo'ri 1 448 dollar, gilos 2 114 dollar turadi. Bu farq mahsulot tarkibini almashtirish va qayta ishlash orqali qiymatni bir necha barobar oshirish zaxirasi borligini ko'rsatadi.

Sabablar: sanoat eksporti nima uchun chuqurlashmayapti?

Makroiqtisodiy kanal. Oltin narxi, pul o'tkazmalari va kapital oqimlari real almashuv kursiga bosim yaratadi. Real samarali kurs indeksi (2015 = 100) 2024 yilda 56,9 bo'lgan bo'lsa, 2025 yilda 58,7

emas) qiymatlarga asoslanadi va milliy statistikadagi tovar eksporti bilan mos kelmasligi mumkin; shu sababli WITS va NSCU qatorlari bir-biriga qo'shilmadi.

[5]Birlik qiymati = qiymat (mln dollar) / hajm (ming tonna) × 1 000. Jami: 2024 yilda 1 549,4 / 2 036,1 = 761 dollar; 2025 yilda 2 121,2 / 2 162,7 = 981 dollar. Alohida mahsulotlar (2025 yil, qiymat / hajm): piyoz 90,1 / 319,0; sabzi 11,2 / 57,4; quritilgan uzum 143,8 / 113,1; quritilgan olxo'ri 62,7 / 43,3; gilos 72,5 / 34,3. Hisob-kitob muallifniki.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ga ko'tarildi (IMF, 2026, p. 34); XVJ bu mustahkamlanishni oqimlar bilan bog'laydi va raqobatbardoshlikni faqat mahsuldorlikni oshirish orqali saqlab qolish mumkinligini ta'kidlaydi (IMF, 2026, p. 41). Indeks darajasi hamon 2015 yildan past, shuning uchun bu hozircha sanoat eksporti sustligining isbotlangan sababi emas, balki oltin daromadlari ko'payishi bilan kuchayishi mumkin bo'lgan xavf kanalidir.

Moliyaviy kanal. Qayta ishlash va mashinasozlik loyihalari uzoq qaytim muddatli va kapital talabchan. 2024 yilda Jahon banki so'ragan firmalarning uchdan biridan ko'pi kredit olishda to'liq cheklangan, yana 15 foizi qisman cheklangan; real kredit foizlari 15 foizdan yuqori (IMF, 2026, pp. 14–15). Davlat banklari bank aktivlarining 63 foizini nazorat qiladi va imtiyozli yo'naltirilgan kreditlashni keng qo'llaydi (IMF, 2026, p. 13). Bunday sharoitda uzoq muddatli sanoat loyihalari qisqa aylanmali faoliyatlarga nisbatan kamroq moliyalashtirilishini kutish mantiqiy.

Eksportchilar bazasi va raqobat muhiti. Jahon banki ma'lumotiga ko'ra, savdo hajmining YaIMga nisbati 2017 yildan beri ikki baravardan ortiq oshib, 2022 yilda 71,6 foizga yetgan, lekin tovar eksport qiladigan firmalar ulushi atigi 6 foiz. 2020 yilda markaziy davlat korxonalari soni 2 000 dan oshgan, ularning tushumi YaIMning 32 foiziga teng bo'lgan va har beshtadan to'rttasi xususiy firmalar samaraliroq raqobatlasha oladigan sohalarda faoliyat yuritgan (World Bank, 2025). Tor eksportchi bazasi va davlat ishtirokining kengligi yangi eksport mahsulotlarini "kashf etish" imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Savdo-institutsional kanal. JSTga a'zolik jarayoni yakunlanmagan: 2026 yil 27–28 iyuldagi Ishchi guruh yig'ilishida O'zbekiston 2026 yil ichida a'zolikni yakunlash niyatini takrorladi va mart oyidan buyon 190 ta qonun hujjati JST qoidalariga moslashtirilganini bildirdi (World Trade Organization [WTO], 2026); XVJning 2026 yil may holatidagi bahosiga ko'ra, ikki tomonlama muzokaralar uch a'zo bilan tugallanmagan (IMF, 2026, p. 7). Jahon banki bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirish va imtiyozli savdo kelishuvlarini kengaytirishni global qiymat zanjirlariga integratsiya sharti sifatida ko'rsatadi (World Bank, 2025). Qoidalar aniq bo'lmaguncha eksportchilar import komponentlarga tayanadigan murakkab mahsulotlarga uzoq muddatli tavakkal qilmaydi.

Nihoyat, siyosatni yo'naltirish uchun zarur ko'rsatkich yetishmaydi (2-bo'limga qarang): eksportdagi ichki qo'shilgan qiymat ulushi hisoblanib e'lon qilinmaydi, shuning uchun maqsadlar hajm bilan belgilanadi va oltin kabi bir tovarning o'sishi bilan bajarilib qolishi mumkin.

Takliflar

Maqsad va o'lchov tizimini o'zgartirish. Umumiy eksport hajmi maqsadi oltin hisobiga bajarilishi mumkinligi 2025 yil misolida ko'rindi. Rasmiy maqsad ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni joriy etish taklif etiladi: oltinsiz va energiyasiz sanoat eksportining YaIMdagi ulushi (2025 yil bazasi — 6,2 %; taklif etiladigan orientir — 2022 yil darajasi, 10,1 %) (IMF, 2026, p. 34); mashina-uskunalar eksportining importni qoplash darajasi (2025 yilda 7,3 %); eksportchi firmalar ulushi (hozir 6 %) (World Bank, 2025). Milliy statistika qo'mitasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi resurs-chiqim jadvallari asosida eksportdagi ichki qo'shilgan qiymat ulushini yiliga bir marta hisoblab e'lon qilsin; kutilayotgan biznes ro'yxatga olish natijalari buning uchun ma'lumot bazasini kengaytiradi (IMF, 2026, p. 20).

Oltin daromadlarini boshqarish qoidasi. 2026 yil byudjeti oltin narxi bo'yicha konservativ taxminga (bir unsiya uchun 3 050 dollar) tayanadi va XVJ daromadlarning sezilarli oshib bajarilishini kutadi (IMF, 2026, p. 9). Ortiqcha daromadni joriy xarajatlarga yo'naltirish talabni va real kurs bosimini oshiradi. Buning oldini olish uchun XVJ tavsiya qilgan noma'dan boshlang'ich taqchillik chegarasini

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

(IMF, 2026, pp. 9–10) qonuniy qoida sifatida joriy etish va bazaviy narxdan yuqori mineral daromadning belgilangan ulushini Qayta tiklash va taraqqiyot jamg'armasiga yo'naltirish taklif etiladi; jamg'arma depozitlari 2023–2025 yillarda sezilarli kamaygan (IMF, 2026, p. 42). Bu choraning maqsadi — sanoat eksportchilari uchun real kurs sharoitini barqaror saqlash.

Natijaga bog'langan va JSTga mos qo'llab-quvvatlash. XVJ foydaga asoslangan soliq imtiyozlarini (soliq ta'tillari, kamaytirilgan stavkalar) bosqichma-bosqich kamaytirishni tavsiya qilgan holda (IMF, 2026, p. 10), 2026 yildan yuqori texnologiyali ishlab chiqaruvchilar va eksportchilar uchun yangi imtiyozlar berilgani qayd etilgan (IMF, 2026, p. 44). Umumiy imtiyozlar o'rniga tekshiriladigan natijaga bog'langan yordam (eksport qilingan qo'shilgan qiymat, yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli shartnomalar) joriy etilsin. Majburiy mahalliylashtirish talabi o'rniga ixtiyoriy yetkazib beruvchilarni rivojlantirish dasturlari tanlanadi, chunki JST qoidalari majburiy mahalliy tarkib talablarini, qoida tariqasida, cheklaydi. Ustuvor uchta yo'nalish ma'lumotlardan kelib chiqadi: (a) elektr mashinalari (2025 yilda +26,7 %, 267,0 mln dollar) va avtomobil ehtiyot qismlari (310,4 mln dollar) atrofida komponent ishlab chiqarish (NSCU, 2026, p. 5); (b) to'qimachilikda ipdan tayyor mahsulotga o'tishni kengaytirish, chunki ip hamon to'qimachilik eksportining 27,0 foizini tashkil etadi (NSCU, 2026, p. 7); (c) meva-sabzavotda quritish, qadoqlash va yuqori qiymatli navlarga o'tish, bunda tonna qiymati mahsulotlar orasida bir necha barobar farq qiladi.

Kirish resurslari va bozorga chiqish xarajatlarini kamaytirish. JSTga a'zolikni 2026 yil ichida yakunlash, raqamli yagona darcha va bojxona jarayonlarini soddalashtirish hamda imtiyozli savdo kelishuvlarini kengaytirish Jahon banki tavsiyalariga mos keladi (World Bank, 2025; WTO, 2026). Bulardan tashqari, eksport uchun ishlab chiqarishda ishlatiladigan import komponentlar bo'yicha bojxona to'lovlarini qaytarish (drawback) yoki vaqtincha olib kirish rejimi eksportchining xarajatini kamaytiradi va uning global qiymat zanjirlaridagi o'rnini mustahkamlaydi. Ko'rsatkich sifatida bunday tovarlar bo'yicha rasmiylashtirish muddati va qaytarish tezligi kuzatilsin.

Eksportni moliyalashtirish tizimini qayta qurish. Yo'naltirilgan imtiyozli kreditlarni bosqichma-bosqich to'xtatish, davlat banklarini xususiylashtirish va MSB uchun bozor asosidagi moliyalashtirishga o'tish yo'l xaritasi XVJ tavsiyalariga mos (IMF, 2026, pp. 13–15). Shu asosda eksport kreditlari uchun sug'urta va kafolat mexanizmi, jo'natishgacha moliyalashtirish hamda xavfni bo'lishish sxemalari xususiy banklar orqali joriy etilsin. Bu chora firmalarning uchdan biridan ko'prog'ini to'liq cheklayotgan kredit to'sig'ini kamaytirib, faqat 6 foiz firma eksport qilayotgan bazani kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa

2025 yildagi eksport o'sishi hajm jihatidan yuqori bo'lsa-da, sifat jihatidan bir tomonlama bo'lgan: o'sishning 70,4 foizini oltin va xizmatlar ta'minlagan, sanoat buyumlari va mashina-uskunalar eksporti esa qisqargan. Mashina-uskunalarda eksport importning atigi 7,3 foizini qoplaydi, oltinsiz eksport esa 2018–2025 yillarda importdan sekinroq o'sgan. Sanoat eksportining chuqurlashmasligi real kurs bosimi xavfi, moliyalashtirishdagi cheklovlar, tor eksportchilar bazasi va savdo qoidalarining to'liq shakllanmaganligi bilan bog'liq; qo'shilgan qiymatni o'lchaydigan rasmiy ko'rsatkichning yo'qligi esa bu muammoni ko'rinmas qoldiradi. Shu sababli taklif etilgan beshta chora — o'lchov tizimini o'zgartirish, oltin daromadlarini boshqarish qoidasi, natijaga bog'langan qo'llab-quvvatlash, kirish resurslari xarajatini kamaytirish va eksportni moliyalashtirish — hajmiy o'sishni qo'shilgan qiymatga asoslangan o'sishga aylantirishning izchil yo'lini tashkil etadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (APA 7)

1. Hausmann, R., Hwang, J., & Rodrik, D. (2007). What you export matters. Journal of Economic Growth, 12(1), 1–25. https://doi.org/10.1007/s10887-006-9009-4
2. International Monetary Fund. (2026). Republic of Uzbekistan: 2026 Article IV consultation—Press release; and staff report (IMF Country Report No. 26/152). https://www.imf.org/-/media/files/publications/cr/2026/english/1uzbea2026001.pdf
3. Koopman, R., Wang, Z., & Wei, S.-J. (2014). Tracing value-added and double counting in gross exports. American Economic Review, 104(2), 459–494. https://doi.org/10.1257/aer.104.2.459
4. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2026, January 21). Foreign trade turnover of the Republic of Uzbekistan: Preliminary data for January–December 2025 [Press release]. https://stat.uz/img/news/press-reliz-en-_p94457.pdf
5. World Bank. (n.d.-a). Manufactures exports (% of merchandise exports) – Uzbekistan [Data set]. World Development Indicators. Retrieved September 20, 2026, from https://data.worldbank.org/indicator/TX.VAL.MANF.ZS.UN?locations=UZ
6. World Bank. (n.d.-b). Uzbekistan trade at a glance: Most recent values [Data set]. World Integrated Trade Solution. Retrieved September 20, 2026, from https://wits.worldbank.org/countrysnapshot/en/UZB/textview
7. World Bank. (n.d.-c). Uzbekistan trade summary 2018 \World Integrated Trade Solution. Retrieved September 20, 2026, from https://wits.worldbank.org/CountryProfile/en/Country/UZB/Year/2018/Summary
8. World Bank. (n.d.-d). Uzbekistan trade summary 2023 World Integrated Trade Solution. Retrieved September 20, 2026, from https://wits.worldbank.org/CountryProfile/en/Country/UZB/Year/LTST/Summarytext
9. World Bank. (2025, June 24). Uzbekistan – Country economic memorandum: Fostering private sector-led growth and global integration. https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/cem-2025
10. World Trade Organization. (2026, July 27). Uzbekistan reaffirms 2026 WTO accession goal, thanks members for continuing engagement https://www.wto.org/english/news_e/news26_e/acc_27jul26_470_e.htm

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.